



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR 2020- yil yanvar-dekabr

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida Toshkent shahrida iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun jami 44 778,8 mlrd. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirildi. 2019- yilning mos davriga nisbatan 96,5 % ni tashkil qildi. Ularning 59,1 % yoki 26 452,2 mlrd. so‘m jalb etilgan mablag‘lar hisobidan moliyalashtirilgan bo‘lsa, korxonalar tashkilot va aholining o‘z mablag‘i hisobidan 40,9 % yoki 18 326,6 mlrd. so‘m o‘zlashtirildi.

Jami asosiy kapitalga investitsiyalar

44 778,8 mlrd. so‘m.

O‘shish sur‘ati 96,5 %

Markazlashgan

5 766,9 mlrd. so‘m

O‘shish sur‘ati 66,2 %

Markazlashmagan

39 011,9 mlrd. so‘m

O‘shish sur‘ati 103,6 %



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR

Joriy davrda markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 97,2 % punktga kamayib, o'sish sur'ati 66,2 % ni yoki 5 766,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar - 39 011,9 mlrd. so‘m o‘shish sur‘ati 103,6 % ni tashkil etdi.




ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR

O‘z mablag‘lari va korxonalar mablag‘i hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan - 17 110,0 mlrd. so‘m yoki jami investitsiyalarga nisbatan 38,2 % ni tashkil etdi. Aholi mablag‘i - 1 216,7 mlrd. so‘m (2,7 %).

MOLIYALASHTIRISH MANBALARI BO‘YICHA ASOSIY KAPITALGA O‘ZLASHTIRILGAN INVESTITSIYALAR

(jamiga nisbatan, % da)





TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR


Shuningdek, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari hisobidan 8 488,8 mlrd. so‘m (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 19,0 % ni tashkil etib, o‘shish sur‘ati 113,6 % ga yetdi), to‘g‘ridan-to‘g‘ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar - 12 196,4 mlrd. so‘m (jamiga nisbatan 27,2 %, o‘shish sur‘ati 92,7 %), O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar 1 896,6 mlrd.so‘m (o‘shish sur‘ati 49,8 %), Respublika byudjeti - 2 958,0 mlrd. so‘m (jamiga nisbatan 6,6 %, o‘shish sur‘ati 84,4 %), Suv ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi - 83,1 mlrd. so‘m (jamiga nisbatan 0,2 %, o‘shish sur‘ati 101,5 %) hamda tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi hisobidan esa - 829,2 mlrd. so‘m (jamiga nisbatan 1,9 %, o‘shish sur‘ati 62,6 %) asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirildi.

MOLIYALASHTIRISH MANBALARI BO‘YICHA ASOSIY KAPITALGA O‘ZLASHTIRILGAN INVESTITSIYALAR

	mlrd. so‘m	O‘shish surati, %	Jamiga nisbatan ulushi %da
Jami	44 778,80	96,5	100
Respublika byudjeti	2 958,0	84,4	6,6
Suv ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi	83,1	101,5	0,2
Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi	829,2	62,6	1,9
O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar	1 896,6	49,8	4,2
Korxonalar mablag‘i	17 110,0	115,6	38,2
Aholi mablag‘lari	1 216,7	51,6	2,7
Kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	7 207,9	141,5	16,1
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz	8 488,8	113,6	19
To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar	4 988,5	59,3	11,1

TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI


TUMANLAR KESIMIDA ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALARNING O'SISH SUR'ATI



Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati 193,8 % Uchtepa tumanida kuzatildi. Shuningdek, Yunusobod tumanida 152,0 % ni, Olmazor tumanida 151,0 % ni tashkil qildi. Bu asosan ushbu hududlarda zamonaviy uylarning qurilishi bilan bog'liq.

TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

TUMANLAR KESIMIDA ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR *(jamiga nisbatan % da)*




- Bektemir
- Mirzo Ulug'bek
- Mirobod
- Olmazor
- Sergeli
- Uchtepa
- Chilonzor
- Shayxontohur
- Yunusobod
- Yakkasaroy
- Yashnobod

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar bo'yicha Yunusobod tumani yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 15,8 % to'g'ri keldi.

Shuningdek, Shayxontohur tumanida 13,2 % dan, Mirobod tumani 13,2 % ni, Olmazor tumani 9,8 % ni tashkil etdi. Eng kam o'zlashtirgan investitsiyalar Bektemir hamda Uchtepa tumanida 3,3% va 4,3 % kuzatildi.

ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALARNING TEXNOLOGIK TARKIBI


(jamiga nisbatan, % da)




Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish-montaj ishlari bo'yicha-17 521,8 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar - 23 831,6 mlrd. so'm va boshqa xarajatlarga 3 425,4 mlrd. so'm o'zlashtirildi.

TUMANLAR KESIMIDA TEXNOLOGIK TARKIBI

(jamiga nisbatan, % da)



ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALARNING TAKROR ISHLAB CHIQRISH TARKIBI (jamiq nisbatan, % da)




Joriy davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning aksariyat qismi yangi qurilishga yoʻnaltirilgan. Yangi qurilishga yoʻnaltirilgan investitsiyalar hajmi - 19 106,7 mlrd. soʻmni tashkil etib, jami oʻzlashtirilgan investitsiyalarning 42,7 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yoʻnaltirilgan investitsiyalar - 11 064,2 mlrd. soʻmni tashkil etib, jami oʻzlashtirilgan investitsiyalarning 24,7 % ni tashkil etdi. Qolgan 32,6 %, yaʼni - 14 607,9 mlrd. soʻm boshqa xarajatlarga toʻgʻri keldi.



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

TUMANLAR KESIMIDA ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALARNING TAKROR ISHLAB CHIQARISH TARKIBI (jamiga nisbatan %, da)




Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Sergeli tumanida kuzatilib, 57,5 % ni tashkil etdi.

Mos ravishda kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya, texnik qayta qurollantirish jami investitsiyalardagi ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Shayxontohur tumanida kuzatilib, 32,4 % ni tashkil etdi. Shuningdek, jami investitsiyalar ulushi eng past ko'rsatkich Olmazor tumanida kuzatilib 16,1 % ni tashkil etdi.



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALARNING IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA TARKIBI (jamiga nisbatan, % da)




Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida boshqa yo'nalishlar yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda asosiy kapitalga investitsiyalar - 10 706,4 mlrd. so'm o'zlashtirilib yoki jami investitsiyalarga nisbatan 23,0 % ni tashkil qildi.

ASOSIY KAPITALGA XORIJIY INVESTITSIYA VA KREDITLAR


mlrd. so‘m

	Jami xorijiy investitsiya va kreditlar	shu jumladan :		To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kafolatlanmagan kreditlar	shu jumladan :	
		Investitsiyalar	Kreditlar		Investitsiyalar	Kreditlar
<i>Toshkent sh.</i>	14 093 042,1	7 620 374,2	6 472 667,9	9 564 614,8	4 988 545,3	4 576 069,5
Bektemir	568 144,7	425 746,3	142 398,4	245 392,4	102 994,0	142 398,4
Mirzo Ulug‘bek	512 172,7	484 058,8	28 113,9	270 988,3	254 278,6	16 709,7
Mirobod	2 107 331,1	1 662 696,6	444 634,5	1 659 877,1	1 537 231,2	122 645,9
Olmazor	1 600 778,3	1 466 557,2	134 221,0	312 230,2	245 040,5	67 189,7
Sergeli	617 647,6	269 031,8	348 615,8	495 069,7	146 453,9	348 615,8
Uchtepa	554 774,1	403 397,1	151 377,0	534 443,0	388 313,4	146 129,6
Chilonzor	1 479 195,0	250 066,4	1 229 128,6	1 312 103,9	218 390,7	1 093 713,2
Shayxontohur	2 296 209,6	1 142 149,0	1 154 060,5	1 440 245,6	1 110 128,4	330 117,2
Yunusobod	2 200 133,7	495 423,0	1 704 710,7	1 474 920,4	262 336,0	1 212 584,4
Yakkasaroy	777 947,2	759 957,4	17 989,9	476 750,6	472 143,8	4 606,8
Yashnobod	1 378 708,1	261 290,6	1 117 417,5	1 342 593,6	251 234,8	1 091 358,8

Tumanlar kesimida asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar (jamiga nisbatan % da)



TOSHKENT SHAHRI BO‘YICHA FOYDALANISHGA TOPSHIRILGAN UY-JOYLAR (ming kv.m.)



Ijtimoiy sohada joriy davrda jami umumiy maydoni 587,8 ming kv.m, bo‘lgan 1634 ta turar-joy obyekti yangi qurilib ishga tushirilgan.

Ishga tushirilgan turar-joylarning hududlar kesimida ko‘radigan bo‘lsak, eng ko‘p qismi Yashnobod tumanida ishga tushirilgan bo‘lib, 142,0 ming kv.m va shahar bo‘yicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 24,2 % ni tashkil etdi. Keyingi o‘rinlarni Mirzo Ulug‘bek tumani egallagan bo‘lib, shahar bo‘yicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 134,2 ming kv.m va 22,8 % ni tashkil etdi.

**Toshkent shahar statistika boshqarmasi Investitsiya
va qurilish statistikasi bo'limi
2020- yil yanvar-dekabr**

**Nashr uchun mas'ul: D.Rustamov
Aloqa telefoni: (071) 203-88-18**

**Toshkent shahar statistika
boshqarmasi
Toshkent sh., Amir Temur shoh
ko`chasi, 11 uy**